



SHAXSGA YO'NALTILGAN TA'LIM ASOSIDA BOLA SHAXSINI SHAKILLANTIRISH

*Xallokova Maksudaxon Ergashevna,
FarDU p.f.f doktori (PhD)*

*Qodirova Sevaraxon Maxammadjon qizi
FarDU magistranti*

Annotatsiya. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda tarbiyachining faoliyati hamda tarbiyalanuvchilarni shxs sifatida shakillantirish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Shaxs, pedagogik jarayon, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, pedagogik mahorat, kommunikativ.

Shaxs tushunchasi har qanday pedagogik jarayonning asosiy o'lchovi va har qanday pedagogik tizimning qurilishini belgilovchi omildir. Shaxs tushunchasi istentsional hodisa sifatida insonning mavjudligi va hayotiy jarayoni ifodalaydi. Shuning uchun ham tarbiyachi shaxsning rivojlanishi ta'minlovchi ta'lim-tarbiya maydonini tashkil etishi kerak.

Bugungi kunga qadar fanda shaxs tushunchasining yaxlit yagona ta'rifi yaratilmagan. Shaxs birinchi navbatda ijtimoiy hodisa, faol subyekt ongli mavjudot sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, A.V.Petrovskiy shaxsni boshqa kishilarning dunyosiga birlashgan alohida o'ziga xos individ sifatida talqin etadi. Bunday holatlarda shaxslar aro munosabatlar tizimi vujudga keladi.

Shaxsning individualligi uning ichki dunyosi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim pedagogik faoliyatning alohida o'ziga xos turidir. Bu faoliyat o'zining maqsadi, vazifalari, mazmuni, texnologiyalariga ega. Bu esa pedagoglarning pedagogik faoliyatida yaxlit qadriyatli munosabatlarning ifodalanishini taqazo qiladi. O'qitish bu yuqori darajadan past darajani, yaxshidan yomonni, xohish istakdan istamaslikni, munosib tanlovdan nomunosib tanlovni farqlashni talab qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda tarbiyachining kasbiy rivojlanishi, yetukligi muhim ahamiyatga ega. tarbiyachining pedagogik mahorati shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini muvofaqiyatli tashkil etish imkonini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni uzluksiz rivojlantirishdan iborat. Tarbiyachi



tarbiyalanuvchi bilan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim maqsadiga erishish uchun izlanishlar olib boorish kerak. Buning uchun tarbiyachida kreativlik, o'z-o'zini tanqid qilish masuliyatlilik, tolerantlik, qiziquvchanlik, empatiya kabi sifatlar barqarorlashgan bo'lishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish uchun tarbiyachi yangicha pedagogik tafakkur egasi bo'lishi kerak.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim – bola shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda talim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini qarab chiqamiz:

1. Har bir bolaga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda bola o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.

3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;

4. Ta'limda "muvaffaqiyat muhiti"ni tashkil etish, bolaga ta'lim va tarbiya olishida muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. Bolaga atrofda gilarining har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

5. Bolaningning hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq-muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy-motor rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. - СПбУМП, 1999. – 442.

2. Петровский А.В., Шпалинский В.В. Социальная психология коллектива: Учеб. пособие. -М, 1978. 3. Илин В.С..Ñ. Формирование личности школьника. - М.У.Педагогика, 1984. – 144 с.

4.М.Халлокова. Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini modernizatsiyalash. Obshestvo I innovatsii 3 (1), 151-157, 2022



5. Khallokova, M. E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. Eastern European Scientific Journal, (2)

6. Khallokova, M. (2022). Modernization of the education system in non-governmental educational institutions. Society and Innovations, 3 (1), 151-157.

7. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 (2023)

8. MAKTABCHA TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV XUSUSIYATLARIGA OID XORIJIY TAJRIBALAR. Models and methods in modern science, 2(13), 122-125.

9. Maksuda, X. A. L. L. O. K. O. V. A., & QODIROVA, S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH VA REJALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(8), 3-